



SHAXSLARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR NAMOYON BO'LISH SABABLARI

Abdumalikov Jamshid Toxir o'g'li

Jizzax viloyati Baxmal tumani 43-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: *Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog'lom oila muhitining o'rni kattadir. Bola tug'ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi.*

Kalit so'zlar: *Destruktiv xulq, deviant xulq, delinkvent xulq, eros, tanatos, xromosoma nazariyasi, endokrin nazariya, biologik nazariya, destruktiv ruhiy holat, tushkunlik*

KIRISH

Lombrosoning fikriga ko'ra, biologik xususiyatlar va birinchi navbatda tashqi morfologik xususiyatlar (bosh suyagi shakli) haqidagi o'z xulosalariga asoslanib, jinoyatchilarga xos bo'lgan tug'ma xususiyatlarining natijasi, jinoyatni muqarrar deb hisobladi va jazo ularni tuzatolmasligini aytdi. Lombroso jinoyatchilikning kriminologiyasida eng ko'p talab qilinadigan formulani ishlab chiqdi. Uning formulasida antropologiya institutining asoschisi mahkumlarning antropologik xususiyatlarining o'rtacha hajmini spirtli ichimliklar iste'mol qilgan voyaga yetmaganlarning soni bilan bog'lashni taklif qiladi.

Genetika rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi, tajovuz va jinoyatlarning xromosoma gipotezasi ishlab chiqildi. Agressiyaning biologik nazariyalarining yana bir yo'nalishi jinoiy va tajovuzkor xatti-harakatlarga gormonal ta'sirlarning rolini o'rganish bilan bog'liq. 1924-yilda



amerikalik olim M. Schlapp jinoyatchilarning endokrin tizimini o'rganib chiqdi, u tekshirgan mahbuslarning uchdan bir qismi bilan bog'liq hissiy beqarorlikdan azob chekayotganini aniqladi. Biz shaxs og'ishgan xulqining turli ko'rinishlari ikkita - o'ziga yoki boshqalarga qarama-qarshi yo'nalishli "destruktiv axloq"ning yagona o'qida joylashganini ko'ramiz.

Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog'lom oila muhitining o'rni kattadir. Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini angelaydi, his etadi. Jamiyat a'zolari shaxsiy nuqtayi nazarlarining shakllanishiga, ularning deviant xulq-atvorga nisbatan ijtimoiy faol munosabatlarining tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi shaxslar, tashkilotlar rahbarlarining o'rni va roli kattadir. "Ba'zilar mumkin, boshqalarga mumkin emas", "hozir yaxshi, ertaga yomon" va shu kabi munosabat holatlarining ikkilamchi fe'l-atvor shaklida, ya'ni parallel standartlar yo'nalishida amal qilishiga izn berish juda xavflidir. Shu boisdan, har qanday holatlarda ham mansabdor shaxslar, turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining rahbarlari, pedagog va tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vakillarining xulq-atvor me'yorlarini buzishi qat'iy qoralanadi.

Insondagi destruktiv xulq tabiati hozirga qadar psixologiya fanida hali yaxshi o'rganilmagan muammolardan biri sanaladi Bu muammo 20-asrning o'rtalarida shakllangan. Psixologik yondoshuv shaxsning og'ishgan xulqidagi alohida ko'rinishlarini ijtimoiy-psixologik tafovutini ajratishga asoslangan.

Psixologik tasniflar quyidagi mezonlar asosida quriladi:

- buzilgan me'yor turi;
- axloq va uning motivatsiyada psixologik maqsad;
- ushbu axloq oqibati va u keltirgan zarar;
- axloqning shaxsiy-uslubiy tavsifnomasi.





Shuni ta'kidlash zarurki, “og‘ishgan xulq” atamasini 5 yoshdan kichik bo‘lmagan bolalarga nisbatan qo‘llash mumkin, qat’iy ma’noda esa 9 yoshdan keyin qo‘llashimiz mumkin. 5 yoshdan oldin bolaning ongida ijtimoiy me’yorlar haqidagi zaruriy tasavvurlar bo‘lmaydi, o‘z-o‘zini nazorat qilish esa kattalar yordamida amalga oshiriladi. Faqat 9-10 yoshidagina bolada ijtimoiy me’yorlarga mustaqil rioya qilish qobiliyatining mavjudligi haqida gapirish mumkin. Agar 5 yoshdan kichik bo‘lgan bolalarda axloqi yosh me’yoridan ahamiyatli tarzda og‘sa, bunda uni yetilmaganlikning, asabiy reaksiya yoki psixik rivojlanish buzilishining bir ko‘rinishi sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Destruktiv xulq 2 ta asosiy turlarda namoyon bo‘ladi:

1. Delinkvent tur - jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy huquqiy me’yorlarga qarama qarshi bo‘lgan xatti - harakatlarga xulqning yo‘nalganligidir.
2. Deviant tur - jamiyatda qabul qilingan axloqiy me’yorlarga qarama — qarshi xulqiy ko‘rinshlarni namoyon etish.

Destruktiv xulqning barcha ko‘rinishlarida insonning ma’lum bir himoya reaksiyalari sifatida yuzaga kelsada biroq nerv sistemasida buzilishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Destruktiv xulq bolalikdagi salbiy emotsional kechinmalar, ota onaning bolaga nisbatan emotsional sovuqqonligi natijasida zarur vaqtlarda ulardan yetarli darajada mehr-muhabbatga ega bo‘lmaganligi, nasliy omillar bo‘lishi ham mumkin.

Z. Freyd inson xulqida 2 ta asosiy instinkt borligini ta’kidlaydi: Eros - bu hayot ishtinktidir. Undagi quvvat, hayotni saqlash, qayta tiklashga yo‘naltiradi. Tanatos – o‘lim instinktidir. Undagi quvvat hayotni vayron qilish va to‘xtatishga yo‘naltiradi. Destruktiv xulq barcha insonlar uchun xosdir. Ayrim insonlarda bu xulq shunchalik kuchliki, ularning jamiyatdagi o‘rnini va xulqini belgilaydi.

Destruktiv xulq ko‘rinishlarini namoyon bo‘lishida negativ ustanovkalar shaxsning atrofdigilarning aksariga nisbatan salbiy munosabatlari natijasida shakllanadi S.P. Ivanov va V.V. Boyko tadqiqotlarida destruktiv ustanovkalarning quyidagi turlari ajratiladi:



1. Atrofdagilarga nisbatan fikrlari va xatti-harakatlarida yashirin beshavqatlilik;
2. Atrofdagilarga nisbatan ochiq beshavqatlilik;
3. Insonlar haqida asoslangan negativ fikrlar. Ma'lum bir ijtimoiy vaziyatlarda yuzaga kelgan holatlar asosida unga sababchi bo'lgan insonlar to'g'risida salbiy fikrga ega bo'lish ham shunday;
4. Negativ faktorlar yuzasidan o'zining sheriklari haqida aoslanmagan umumlashtirishlar qilish;
5. Atrofdagilar bilan munosabtlar jarayonida negativ tajribaga ega bo'lish Kleyberg Yu. A va A. Ellislar destruktiv xulq ko'rinshlarini shakllanishida "irratsional ustanovkalar" tushunchasini kiritganlar.

XULOSA

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirishlar bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va sotsial oqibatlariga ko'ra mohiyatan farqli jihatlariga egadir. Birinchi farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo'lagiga aylanib ketishidan iborat bo'ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrofmuhitdan norozilik, uydagi tushunmovchiliklar va hokazolar — bularning barchasi sub'ekt ruhiyatini jarohatlaydi hamda u mavjud vaziyatni o'zgartirishga urinadi. Jamiyatda insonlar faoliyati, xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me'yorlar boshqaradi. Destruktiv xulq-atvorni bartaraf etish, ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ijralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulqatvorini muayyan ijtimoiy muhitga moslashtiruvchi qoidalarga amal qilinishiga erishib borishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rozikova M., Aliyeva K. Psixologik tashxis metodikalari . – T., 2013, 16-b Qarshiboyeva G. Oilada bolalarni xalq og 'zaki ijodi na'munalari asosida tarbiyalash //Архив Научных Публикаций JSPI. –2020.



2. .Шарафитдинов А. и др. Проблема застенчивости у ребенка и ее устранение //Образование и воспитание. –2020. –No. 2. –С. 64-66.
3. .Шарафитдинов А. и др. Формирование у учеников чувства общности //Образование и воспитание. –2020. –No. 2. –С. 66-67
4. Маджидов Дж Б, Маджидова В, Шарофиддинов А . Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. страницы: 22-24 источник: актуальные вопросы современной психологии материалы международной научной конференции. 2017
5. Sharaffitdinov, A., & Yusupov, U. (2022). The opportunities of educating morality for children through samples of folklore. Eurasian Scientific Herald, 5, 65-68.